



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 56-63 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIK TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI



Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li

tayanch doktorant, Namangan davlat universiteti, Namangan.

Annotatsiya: O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti amal qilishni boshlagandan beri o'tgan davrlar mobaynida aholini turmush farovonligi yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa qishloq joylarida aholini tadbirkorlikka o'rgatish orqali kambag'allikdan chiqarish masalalari davlat ahamiyatiga molik masalaga aylanmoqda. O'zbekistonda kambag'allikdan chiqarish borasidagi amaliy harakatni boshladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun tegishli farmon, qarorlar qabul qilindi. Kasbga o'qitish, ish jihozlari bilan ta'minlash, mahsulotni sotish tizimlari ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoyaga muhtojlar «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari»ga kiritildi. Ularni kambag'allikdan chiqarish loyihalari tuzilib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

Kalit so'zlar: turmush farovonligi, bozor iqtisodiyoti, turmush darajasi, qishloq xo'jaligi, kambag'allikni tugatish, farmon, qarorlar, ta'lim tizimi, loyihalar, kambag'allik darajasi, moliyaviy savodxonlik, infratuzilma, islohat, instutsional islohotlar, mehnat unumdorligi, tadbirkorlik.

Kirish.

Mustaqillikni o'tgan 33 yili davomida Respublikamizda aholining turmush farovonligini oshirish maqsadida ko'plab islohatlar olib borildi. Bu islohatlar natijasida mamlakatimizda aholining turmush farovonligi yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda yaqin kunlarga O'zbekistonda kambag'al oilalar va kambag'al aholi tushinchalari ishlatilmagan edi. Ammo Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev vaziyatni imkon qadar ochib berdi. Prezidentimiz ta'kidlashlaricha, O'zbekistonda kambag'allikni tugatish bo'yicha qator islohatlar o'tkazish kerak. Bu islohotlarda birinchi vazifa masala sifatida O'zbekistonda kambag'allikni tugatish bo'yicha aniq harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. Har bir xonadon, har bir kishi uchun analitik diagnostika ma'lumotlari to'plandi. Kasb malakasiga ega bo'lmagan aholini kasbga o'rgatish kasb-hunar ta'limi tizimlari takomillashtirildi. Hozir kunda aholining kambag'al qismini kambag'allikdan xalos etishga qaratilgan islohatlar izchil davom ettirilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, o'tgan yillar davomida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida mamlakatimizda kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi va mamlakatimizning qariyb 1 million fuqarosi kambag'allikdan chiqarildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish masalalari bilan qator jahon olimlari tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlarni olib borilishida Jahon Bankining roli beqiyosdir. Umumiy iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardosh bozorlar va jismoniy va ijtimoiy infratuzilmaga davlat investitsiyalari barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va qishloqlarda kambag'allikni kamaytirish uchun muhim ekanligini ko'pchilik tan oladi. Bundan tashqari, qishloq kambag'allarining iqtisodiyot bilan aloqalari juda xilma-xil bo'lganligi sababli, hukumat siyosati yaxshi tashkil etilgan jamoat ishlari dasturlari va boshqa transfer mexanizmlari orqali ularning yer va kredit, ta'lim va sog'liqni saqlash, qo'llab-quvvatlash xizmatlari va oziq-ovqat yordami kabi muammolarni hal qilishi kerak.[5]. Qishloq aholisining turmush sharoitining yomonlashishi iqtisodiy faol aholining shaharlarga ko'chishiga olib keladi, bu esa qishloq joylarda yashovchilar sonining kamayishiga olib keladi. Hududlar va qishloqlarda turmush darajasining yanada yomonlashishi va u erda yashovchilarning qashshoqlashuviga sabab bo'ladi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot qiyosiy tahlil, sintez, analogiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, uning qishloq joylarida qishloq aholisining ish bilan bandligini ta'minlashda amaliy yechimini kutib turgan ko'plab muammolar mavjudki, bu muammolarni hal qilishda davlat bosh islohatchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdan kelib chiqib aholining ish bilan bandligini ta'minlash masalasi bilan bog'liq farmon va qarorlar qabul qilinib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" kelgusi besh yillikda ijtimoiy-iqtisodiyot huquqiy-siyosiy taraqqiyotimizni belgilab beradigan hujjat sifatida "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-qismining 4.1-bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa: "... yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligi va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash" amalga oshirilishi muhim hisoblangan ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bunday maqsadlarga erishish uchun "... mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish" [1,2] kabi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan bo'lib bu amalda bajarildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi

Qishloq aholisi tarkibida mehnat resurslarining ulushi yuqori ekanligi, qishloq aholisining iqtisodiy faollik va ish bilan bandlik darajasining pastligi, qishloq joylarida tashkil etilgan ish joylarining asosiy qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterga egaligi, ish bilan band bo'lgan aholining salmoqli qismi ish haqi past bo'lgan sohalar, norasmiy sektor va barqaror bo'lmagan ish joylarida band bo'lganligi, xorijdan investitsiyalarni jalb etish bo'yicha harakatning sustligi, qayta ishlash, ijtimoiy infratuzilma va kasanachilik sohasida ish joylarini ko'paytirish imkoniyatlarining to'liq ishga solinmayotganligi hamda tashqi va ichki mehnat migratsiyalari yaxshi tashkil etilmaganligi kuzatilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidagi asosiy masalalardan biri sifatida respublikamizda kambag'allikni qisqartirish yechimini kutayotgan dolzarb masala sifatida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan olg'a surilgan yondashuv shundan iborat bo'ldiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak"[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 30-maqсадida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi. Shulardan birinchi navbatda belgilangan vazifa qishloq xo'jaligini tadbirkorlik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va intensiv rivojlantirish hisobiga qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadlarini kamida 2 baravar oshirish, va buning hisobiga qishloq xo'jaligining yillik o'sish ko'rsatkichlarini kamida 5 foizga oshirish vazifalari ko'yildi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni tuman kesimida mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish ularni faoliyatini yuksaltirish imkoniyatini beradi. Qishloq xo'jaligida eksportbop mahsulotlar yetishtirishni rivojlantirish, ayniqsa meva-sabzavotchilik sohasida imkoniyatlarimizning kengligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalar maydonini 2 baravar ko'paytirish orqali eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollarigacha oshirish imkoniyatlarimiz mavjud. Qishloq joylarida agrologistika tizimlarini rivojlantirish va shunga mos ravishda zamonaviy laboratoriyalar sonini yanada ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xosildorligini va eksportbopligini oshirish ko'p jihatdan urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligiga bog'liq. Bu borada aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi masalaalriga katta ahamiyat qaratish kerak. Chunki qishloq joylarida aholi tomorqalaridan foydalanishni takomillashtirish aholi daromadlarini oshishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Qishloq joylarida aholini daromadlarini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati katta. Qishloq aholisida tadbirkorlik ko'nimalarini hosil qilishda ularni tadbirkorlikka o'rgatish muhim o'rin tutadi. Bu masala 2022-2026 yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 37-maqsadida aniq vazifalar belgilab berildi:

- Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish.
- Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.
- Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish.
- Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish.
- Umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish[4].

Mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish masalalariga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Chunki aholi daromadlarini oshirish ularning ish bilan ta'minlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, qishloq joylarida ishsizlik muammosi aytish mumkinki hozirgi kundagi asosiy muammolardan biriga aylangan. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida asosiy ishlab chiqarish korxonolari shaharlar hududlarida joylashganligidadir. Shu muammolarni hal etishga qaratilgan vazifalar 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 85-maqsadida aniq belgilab berildi va unga ko'ra:

- Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.
- Kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish.
- Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish.
- Ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish.
- Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish.
- Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.
- Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish[4]. vazifalari belgilab olindi

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi qishloq joylarida kambag'allikni qisqartirish va aholini tadbirkorlikka o'rgatish orqali ularni ish bilan bandligini oshirish muammolarni ilmiy-metodologik jihatdan

tadqiq qilishning o'ta muhimligini bildiradi, zero, ularni hal qilish uchun joylardagi Bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini har tomonlama takomillashtirish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni (ayniqsa qishloq joylarida) to'liq ko'rsatib bera oladigan mexanizmlarini joriy etish orqali mehnatga layoqatli qishloq aholisining bandligini ta'minlash va qishloqlarda ishsizlikni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Omillar	Sabablari
Iqtisodiy	Qishloq xo'jaligida oylik ish haqi miqdorining kamligi, ishsizlik, norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi
Demografik	Qishloq joylarida shaharlarni nisbatan ko'p bolali oilalar, qaramlik yuki yuqori bo'lgan oilalar sonining ko'pligi
Ijtimoiy	minimal ijtimoiy nafaqalar, yashashga qobiliyatsizlik, qarzlilar (kreditlar), yashash uchun rejalarni mukammal emasligi va o'ziga ishonchning yo'qligi, oilaviy muammolar (baxtsizliklar), oila ichidagi kelishmovchiliklar, nogironlik, qarilik, sog'likni yomonligi, fuqarolarning yomon odatlari
Ta'lim va malakaviy	Qishloq joylarida ta'limning nisbatan past darajasi, kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi, qishloq mehnat bozorida olingan ta'lim va malakaga talabning deyarli yo'qligi
Geografik	Qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanish darajasini farqlash

1-rasm. Qishloq joylarida aholini kambag'alligi omillari va sabablari

Bundan tashqari islohatlar samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va qambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etildi. Bu esa aynan belgilab olingan vazifalarni ijrosini tizimli ta'minlashda amaliy qadam bo'ldi. Bu o'z navbatida mamlakatimizda qambag'allikni qisqartirish borasida tarixiy instutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yaqqol namunasi bo'ldi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq joylarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholini tadbirkorlik ishlariga jalb qilishda joylarda mahallalarning "O'sish nuqtalari" va xududlarda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Unga ko'ra:

1. Qishloq joylarida bir turdagi ixtisoslashuvda faoliyat yuritayotgan aholini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqildi va amalga oshirish jarayonlari boshlandi.

2. Qishloq aholi punktlari mahallalarida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning aholisi bandligini ta'minlash va joylarda kambag'allikni qisqartirish hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab berildi.

Albatta, yuqorida aytib o'atilganidek, global masshtabda jahon platformalarning asosiy mavzusiga aylangan muammolardan biri bo'lgan kambag'allikni kamaytirishning eng to'g'ri va samarali usuli bu iqtisodiyotda band bo'lganlar sonini ko'paytirish, ularga munosib bo'lgan to'liq ish bilan ta'minlashdir va yuqori mehnat unumdorligi, tadbirkorlik uchun sharoit yaratishdir. Kambag'allikni keltirib chiqaradigan asosiy omil ham ishsizlik darajasining juda yuqoriligi, mavjud ishchi kuchining hozirgi kun talablariga javob bermasligi, inson kapitali qiymatining mehnat unumdorligi jihatidan ortda qolishida, deb izohlash mumkin.

Qishloqlarda aholini tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish zarur. Ayniqsa qishloq joylarida tadbirkorlikka ko'maklashadigan tuzilmalar negizida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlariga yaqindan yordam berish maqsadida Tadbirkorlar kengashini tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri mamlakat uning aholisining salmoqli qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Shuni hisobga olgan holda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir"[3].

O'zbekiston Respublikasida qashshoqlik chizig'i – kunlik yashash uchun 3,2 dollardan kam pulga yashash degani. Yoki misol uchun bir oilada besh nafar kishidan uchun oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollardan kam bo'lsa bu oilani kambag'al oila sifatida ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda shahar va qishloqlarda turmush darajasini tenglashtirish borasida katta qadamlar qo'yilmoqda. Qishloqlarda aholini turmush darajasini ko'tarish bo'yicha ijtimoiy infratuzilmalarini yaratish orqali aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni shakllantirish va soha bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytring kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini tashkil etish orqali aholining ish bilan bandligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratish lozim. Yana bir bandlikni ta'minlash omili sifatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish namoyon bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari qabul qilinishi va u orqali xizmat ko'rsatish punktlarini tashkil etish loyihalarini qo'llab quvvatlashga katta e'tibor qaratish lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida daromadning notekis taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin. Kambag'allikning yuqori darajasini Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim tumanlarida kuzatishimiz mumkin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatda barcha tizimlarda bu muammoni jiddiy islohot yo'nalishi sifatida qabul qilinadi. Aholimiz farovonligiga erishish va kam ta'minlangan oilalar uchun doimiy daromad manbai yaratishda faol ishtirok etish va bu boradagi islohotlarni jadallashtirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikka qarshi kurash dasturiga 700 million dollar xarajat qilinmoqda.

Tadqiqotlarimiz davomida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturi doirasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim;
- Ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlari asosida o'qitish, va bu kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlari aktivligini oshirish;
- kasanachilik mehnatini rivojlantirish kerak;
- ishsiz yoki kasbiy malakasi yo'q shaxslarni kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, bozor talablari mos kadrlar tayyorlash choralari ko'rish;
- aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun uning real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun mehnat unumdorligini jadal oshirish;
- kambag'allikdan chiqarish uchun beriladigan imtiyozli kreditlardan qishloq xo'jaligi va aholi tomorqalaridan maqsadli, samarali foydalanish maqsadida mikroklasterlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi klasterlarini shakllantirishning yangi yo'nalishini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida institutsional va tarkibiy o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan korxonalar va ularga a'zo tarmoqlar o'rtasidagi huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar qishloq xo'jaligining eng muhim vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sektori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning unchalik rivojlanmaganligi va sohada qiymat yaratish takomillashmaganligi boshqa tarmoqlar faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, masalan, raqobatbardosh, keng qayta ishlangan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish jarayonlarida islohatlarni chuqurlashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, biz O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda milliy an'analarni yangilash maqsadga muvofiq. Hududlarning tabiiy geografik joylashuvi tufayli noyob raqobatbardosh mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashtirishni takomillashtirish kerak. Misol uchun tashqi bozorda talab katta bo'lgan paxta xom ashyosi, Oltiariq trufi, Quva anori, Jomboy va Baxmal olmasi, Farg'ona vodiysida yetishtiriladigan meva-sabzavotlar mahsulotlarini keltirishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va ularni turli yo'nalishlarda qayta ishlash, sotish va xizmat ko'rsatish korxonalarini o'rtasidagi tarmoq jarayonlari, qishloq xo'jaligi xizmatida yuqori darajadagi innovatsiyalarga ega korxonalarining mavjudligi, tarmoqqa ulangan korxonalarining hamkorlik va raqobatga tayyorligi, qishloq xo'jaligini tartibga solishning

bozor tamoyillariga muvofiq huquqiy bazani shakllantirish yoki umuman qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yordam beradi. Keng qamrovli xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va yuqori malakali mutaxassislarining mavjudligi sohani rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida maydonga chiqadi.

Xulosa va takliflar. Qishloq joylarida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarning yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni kambag'allikni qayta tiklanish xavfini bartaraf etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir

1. Qishloq joylarida kambag'al aholi qatlamlari bilan ishlashning manzilli tizimini avtomatlashtirish. "Yoshlar daftari", "Temir daftar", "Ayollar daftari"ni "Ijtimoiy himoya yagona reestriga" integratsiya qilish;

2. Qishloq joylarida kambag'al aholi qatlami va kambag'allik riskiga tushish ehtimoli yuqori bo'lgan aholiga beriladigan ijtimoiy yordamlarni faqat ijtimoiy himoya yagona reestri orqali amalga oshirishni tashkil etish.

3. Aholini kambag'allikdan chiqarish yo'nalishida mavjud tadbirkorlik faoliyati tashkil etish bilan bog'liq ishlarni soddalashtirish.

4. Qishloq joylarida biznesning ijtimoiy mas'uliyatini rag'batlantirish. Ularni moddiy rag'batlantirish ishlarini takomillashtirish, birinchi navbatda, mehnat jamoasiga munosib oylik maoshlarni belgilash va ularga qo'shimcha "ijtimoiy paket"lar taqdim etish. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish buning hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga e'tiborni kuchaytirish.

5. Qishloq aholisining ehtiyojmand qismini doimo monitoring qilib borish orqali ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish mezonlarini qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olib olib takomillashtirish mexanizmlarini ishshlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli Farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» // Lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)

4. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

5. Махмуд Хасан Хан «Вопросы экономики» основана на материалах рабочего документа МВФ 00/78 "Rural Poverty in Developing Countries: Issues and Policies" («Бедность сельского населения в развивающихся странах: вопросы и политика»). International Monetary Fund, Publication Services 700 19th Street, N.W., Washington, D.C. 20431, U.S.A. 1 st.

6. Афонасова, М.А. К вопросу о драйверах роста экономики и качества жизни населения сельских территорий / Аллея науки. 2018. Т. 3. № 5 (21). С. 256-259.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

